

MFY XODIMLARI O'ZARO HAMKORLIKDAGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK AHAMIYATI

Charos Umarova Nuridinovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15516138>

O'zbekiston Respublikasida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi sifatida mahalla fuqarolar yig'inlari hududiy barqarorlik, ma'naviy muhit va fuqarolarning turmush sifati ta'minotida muhim rol o'ynaydi. 2023-yilgi "Mahalla" to'g'risidagi Qonunda mahalla fuqarolar yig'inlari faoliyatining yangi tashkiliy va ijtimoiy jihatlarini belgilab berildi. Bu esa ushbu tizimda ishlovchi xodimlar — mahalla fuqarolar yig'ini raisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli, profilaktika inspektori va boshqa mutasaddilar o'rtasida yuqori darajadagi hamkorlikni talab qiladi.

Mahalla tizimi turli yo'nalishlarda faoliyat yurituvchi mutaxassislarining yagona maqsad sari harakatini talab qiladi. Har bir xodimning o'z funksiyasi bo'lsa-da, umumiy maqsad — aholining muammolarini o'rganish va hal qilish, ijtimoiy muhitni barqaror saqlashdir. Shu sababli ular bir-birini to'ldiruvchi, muvofiqlashtirilgan ishlashi zarur.

Mahalla fuqarolar yig'ini doirasidagi jamoaviy ishga quyidagilarni keltirish mumkin: aholining muammolarini monitoring qilish, xavf guruhiga kiruvchi shaxslarni aniqlash va ularni ijtimoiy moslashtirish, yoshlar va xotin-qizlar bilan ishlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, profilaktik va tarbiyaviy ishlarni olib borishni o'z ichiga oladi.

Hamkorlikdagi faoliyatning ijtimoiy-psixologik omillari deganda odamlar guruhida yoki jamoada birgalikda ishlash jarayoniga ta'sir qiluvchi ijtimoiy va psixologik holatlar, munosabatlar, va omillar tushuniladi. Bu omillar insonlar o'rtasidagi muloqot, o'zaro tushunish, ishonch, motivatsiya, rahbarlik uslubi, guruhdagi iqlim va boshqalar bilan bog'liq bo'ladi.

Jamoaviy ish samaradorligi quyidagi psixologik omillarga bog'liq:

O'zaro ishonch - Jamoa a'zolari bir-biriga ishonmasa, tashabbus va mas'uliyat susayadi. Ishonch bo'lmagan jamoada shaxsiy manfaat ustun bo'lib, umumiy maqsadga erishish qiyinlashadi.

Kommunikatsiya - Ochiq va samarali muloqot — jamoaning yuragi hisoblanadi. Mahalla fuqarolar yig'ini xodimlari muntazam axborot almashinuvini yo'lga qo'yganida, qarorlar tez va aniq qabul qilinadi.

Rol va vazifalarning aniq taqsimlanishi - Har bir xodim o'z vazifasini aniq bilsa, ortiqcha mojaro va mas'uliyatsizlikning oldi olinadi.

Ijtimoiy motivatsiya - Rag'batlantirish va tan olish tizimi mavjud bo'lsa, xodimlarda tashabbus va mas'uliyat hissi oshadi.

Jamoaviy qaror qabul qilish - Qarorlarni birgalikda muhokama qilish jamoaning fikr birligiga olib keladi.

Mahalla fuqarolar yig'ini faoliyatini ijtimoiy-psixologik jihatdan takomillashtirish uchun quyidagi choralarni tavsiya etish mumkin. Doimiy ravishda psixologik trening va seminarlar tashkil etish; Jamoa ichida "fikr almashuv sessiyalari" joriy etish; Jamoa a'zolarini baholovchi tizim (360° baholash)ni tatbiq qilish; Mahalla fuqarolar yig'ini ichki reglamentini ishlab chiqish va rollarni hujjatlashtirish; Har oyning yakunida faoliyat tahlili va muammolar bo'yicha ochiq muloqot o'tkazish.

Mahalla fuqaroalr yig'ini xodimlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik — bu faqatgina tashkiliy muvofiqlik emas, balki chuqur ijtimoiy-psixologik jarayon hisoblanadi. Ushbu hamkorlikni takomillashtirish orqali jamoa ichidagi ishonch, mas'uliyat, samimiyat va tashabbus kuchayadi. Natijada esa mahalla darajasida ijtimoiy muammolarni tezkor aniqlash va ularni hal etish imkoniyati oshadi. Bu esa mahalla tizimining yanada samarali faoliyat yuritishiga asos bo'ladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch." – T.: Ma'naviyat, 2008.
2. "Mahalla" to'g'risidagi Qonun. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 2023-yil.
3. Xayitov N., Xolmatov D. "Ijtimoiy psixologiya asoslari." – T.: TDPU, 2020.
4. G'aniyeva M.M. "Jamoa psixologiyasi." – T.: O'zbekiston, 2019.
5. www.mahalla.uz – O'zbekiston Respublikasi Mahalla va nuroniyatlarni qo'llab-quvvatlash vazirligining rasmiy sayti.
6. Rahimov A., Jalilova D. "Ijtimoiy muhit va inson psixologiyasi." – T.: Fan va texnologiya, 2017.
7. www.lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bazasi.